

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA BADIY ASAR TAHLILI USTIDA ISHLASHDA – YANGI BILIMLARNI YAXSHI O'ZLASHTIRISH UCHUN TANAFFUSGA STRATEGIK VOSITA SIFATIDA YONDASHUV

*Bakiyeva Hilola Sapayevna,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).*

*Ismoilova Muborak To'lagan qizi,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishi 1-kurs  
magistranti*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat o'qish va badiiy asar tahlili ustida ishlashda, bundan tashqari ta'lim va uni rivojlantirishda tanaffusning o'rni, uning Finlandiya ta'lim tizimidagi amaliy ko'rsatmalarini yurtimiz ta'lim tizimida sinalgan natijalari tahlil qilingan. Mana shu jarayon davomida, qisqa tanaffuslarni tashkil etishning metod va usullari, uning o'quvchi psixologiyasi va mavzularni o'zlashtirish temperamentiga benihoyat ta'siri haqida fikr yuritildi.*

*Kalit so'zlar: badiiy asar tahlili, tanaffus, fincha model, diqqat, baxt garmoni, alturistik harakat, pulsatsiya, metod, tabiiy ritm, xotirjam hudud, psixologiya.*

*Аннотация: В данной статье рассматривается роль перерыва в обучении и развитии учащихся начальной школы не только в чтении и анализе произведений искусства, но и в образовании и его развитии, его практических указаниях в финской системе образования, в системе образования нашей страны анализируются результаты апробации. В ходе этого процесса обсуждались методы и методы организации коротких перерывов, их существенное влияние на психологию учащихся и темперамент освоения предметов.*

*Ключевые слова: анализ художественного произведения, пауза, финская модель, внимание, гармония счастья, альтруистическое движение, пульсация, метод, естественный ритм, зона покоя, психология.*

*Abstract: This article examines the role of a break in the learning and development of primary school students, not only in reading and analyzing works of art, but also in education and its development, its practical guidelines in the Finnish education system, and the results of testing are analyzed in the education system of our country. During this process, methods and techniques for organizing short breaks and their significant impact on the psychology of students and the temperament of mastering subjects were discussed.*

*Key words: analysis of a work of art, pause, Finnish model, attention, harmony of happiness, altruistic movement, pulsation, method, natural rhythm, calm zone, psychology.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri bu ta'lim sohasidagi innovatsiyalar hisoblanadi. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida keltirilgan: Bosh vazir o'rinbosari B.A. Musayev va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi: "Xalq ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar Finlandiya ta'lim sohasidagi tajribasini, shu jumladan o'quv dasturlari, darsliklari, o'qitish metodikalari va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini xorijga xizmat safarini tashkil etgan holda o'rganib chiqsin" <sup>1</sup> - deya alohida urg'u berdi. Finlandiya ta'lim tizimi faqatgina o'zining ilmiy-nazariy ma'lumotlari bilan emas, ilmiy metodik qarashlari bilan ham XXI asr butun yevropa davlatlari pedagoglarining "ishtiyoqsizlik" kasalligi da'vosiga aylanmoqda. Tadqiqotchi sifatida biz, amerikalik o'qituvchi, yozuvchi va notiq – Timoti Uokerning "Finlandiya ta'lim mo'jizasi- maroqli dars o'tishning 33 siri" nomli kitobini tahlil qilish va fikrlarimizning asosini mana shu kitobda olgan ilmiy ma'lumotlarga tayangan holda chiqardik. Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish yosh xususiyatiga ko'ra bir necha qismlarga bo'linadi. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarining alohida qobiliyat va yetarli darajada bilimni talab qilishdan tashqari, erkin fikrlash, berilgan badiiy asarni ong ostida tahlil qilish, asar qahramonlariga ko'ra tavsiflash kabi bosqichli vazifalarni talab qiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning psixologik holati va diqqati, o'qituvchining pedagogik mahorati jarayonni tashkil qilishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. 15- daqiqalik tanaffusning nazariy tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, u umumiy kasb doirasida shu soha tushuncha va jarayonlaridan uzoqlashib, psixofiziologik dam olish, erkin va ixtiyoriy xatt-harakatlarni bajarishga nisbatan aytiladi.

Fin ta'lim modelida tanaffuslar davomiyligi har bir dars soatidan so'ng 15 daqiqadan kam emasligi shuni anglatdiki, yangi bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun tanaffusga strategik vosita sifatida qarash lozim. Tez-tez beriladigan tanaffuslar o'quvchilarning diqqatini oshiradi. Shu bois biz tanaffusni miya nevrozlarini yumshatib, kislarod bilan to'ldiruvchi usul jihatida mantiqiy boshqotirmalar, turli metodik, didaktik o'yinlar bilan, shunchaki

toza havo olish uchun maktab hovlisi, sport maydoni, ko'rgazmalar zaliga yo'naltirishimiz kerak. 4- sinf o'quvchilarining psixologik va fiziologik holati bu jarayonga to'liq mos kelishini ya'ni 10-11 yoshli bolalar o'z xatti-harakatlarga javob bera olishi, ongni yaxshi rivojlanganligi, diqqatni jamlash uchun uzoq vaqt sarflamasligi, kuzatish, eshtish va tushunish xususiyatlari boshqa yosh bosqichlariga nisbatan sezirarli darajada tez va yuqoriligi bolalar psixologiyasi adabiyotlarida to'laqonli oqlangan nazariyadir. Bu jarayonga namuna sifatida bolalar uchun badiiy asarni tahlil qilishda 15 daqiqalik tanaffuslarning roli bilan bog'liq jihatlarni boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsligida berilgan kichik badiiy asarlar orqali o'rganishiz mumkin. Namangan shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan Zamira Ibrohimovaning ijodiy faoliyati bolalar adabiyoti bilan chambarchas bog'liq. Olimaning "Durдона", "Gulgina", "Ko'zmunchog'im" kabi bir qator majmualar chop etigan. Namuna tariqasida 4-sinf O'qish savodxonligi darsligining 1-qismida berilgan adabiyotshunos, olim Z.Ibrohimovaning "Sayroqi qushcha"<sup>1</sup> hikoyasini tahlil qildik.:1. Ko'zgu va kuzatish: tanaffuslar bolalarga badiiy asarlar haqida ko'proq o'ylash, va hayolan kuzatish imkonini beradi. Tafsilotlar, ranglar va voqealarni to'g'ri ketma- ketlikda umumiy xulosa tarzida tuzib olish uchun tanaffus orqali bolalar badiiy elementlarni va ularning umumiy san'at asariga ta'sirini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Berilgan kichik badiiy asar ketma-ketligida, Xosiyatxonning dadasi qafasda sayroqi qushcha olib keladi, avvaliga qushcha uyga moslasha olmaydi.

Xosiyatxon va uning dugonasi Hidoyatbonu qushchaga xuddi daraxtzordek shox-shabballardan qafas ichiga shinamgina muhit yaratishadi. 15 daqiqalik tanaffus jarayonida bu kichik badiiy asar rollarga bo'lib, boshqa o'quvchilarga xuddi teatr sifatida qo'yilishi, ko'zgu va kuzatish jarayoning asosiy qism bo'lib bu bolalarga xotira mashqi sifatida foydali hisoblanishini ta'kidlashimiz mumkin. 2. Hissiy ishlov berish: tadqiqotchi Amanda Moreno har bir sinfdan "hotirjam hudud" deb atalgan joy bo'lishi qanchalar muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi bunday metod tufayli ilgari kun bo'yi bir necha bor asabiylashib stressga g'arq bo'lgan o'quvchilar, shuningdek g'ayrat va shijoati ichiga sig'may adrenalin miqdori oshib dars jarayonlariga halaqit berayotgan o'quvchilar endi bu holatni chetlab o'tishganini qayd etadi. Badiiy asar tahlil qilish paytida tanaffuslar bolalarga hissiy reaksiyalarini qayta ishlash va aks ettirish, baxt garmonini ishlab chiqarishga yordam beradi. Ularning hissiy reaksiyalarini muhokama qilish orqali empatiya va hissiy intellektni rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar o'zlarini qushcha o'rniga qo'yib uylaridan tashqarida, o'zga joylarda o'zlarini qanday his qilishlarini, qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishlarini, nega qushcha tinimsiz chirqillib hammani bezovta qilish o'rniga sas-sadosiz qolganini o'ylab ko'rishga vaqt berish kerak xolos. Shu o'rinda, ruxshunos olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik his etish ham kirishini ta'kidlash joiz. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholanishidagi psixologik xususiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan: Adabiy qahramonga emotsional munosabat. Elementar tahlil qilish. 3. Tanqidiy fikrlash va talqin qilish: ular badiiy asarning ma'nolariga shubha qilishlari, turli nuqtai nazarlarni o'rganishlari va o'z fikrlarini shakllantirishlari, shu orqali asar janri, uning to'qima-uydurma yoki hayotiy ekanligini ajratib olishlari mumkin. Asarda qushchanning begonasirash holatiga yechim sifatida Hidoyatbonu birgalikda o'yinchoq o'ynashni taklif qiladi, lekin bu fikr ikkinchi qahramon tomonidan tezlik bilan rad etiladi. Chunki u yaxshi biladiki, qushchanning e'tiborini bu bilan tortish va uni tinchlantirish mumkin emas. Bu jarayonda bolalarga turli yechimlar taklif qilishni, nega o'yinchoq qushni e'tiborini jalb qila olmasligini muhokama qilishlari aytiladi. Bu ularda muammoli masalalarga yechim topish va izlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. 4. Dialog va munozara: tanaffuslar bolalarga muloqot qilish va o'z fikrlari, talqinlari va kuzatuvlari bilan bo'lishish imkonini beradi. Suhbat jarayonida ular- kel, men bugun "qahramon" o'rnida bo'laman, "sen qahramon o'rnida bo'lganingda nimalar qila olarding?" kabi o'rin almshtirishga sabab bo'ladi. Nazarda tutilayotgan dialog va munozara jarayonida, o'quvchilarga Xosiyat nega uy ichiga shoxlar olib kelib, idishlarga suv va tariq solib qo'ygani, qushcha uchun o'rmon muhitini yaratgani, agar qushchaga xuddi odamlardek sharoit yaratsa nimalar bo'lishini munozara va muhokama tarzida olib borishadi. Bundan tashqari, Xosiyatxonning onasi aytganidek, qushlarning sayrashida qanday hikmat borligi va uning ma'nolari to'liq yoritiladi. Umuman olganda tabiatning hayotimizda tutgan o'rni va biz uni yana qanday nomlar bilan atashimiz mumkinligi izohlarda qoldiriladi. (Qushlar - tinchligimiz razmi, meva va don – dunlar - baraka ramzi, suv - hayot ramzi.) 5. Ijodiy ifoda: tanaffuslar bolalarga badiiy asardan ilhomlanib o'z ijodlarini ifoda etish uchun joy va vaqt beradi. Eng qiziqarli jarayon hisoblangan ijodiy ifodada esa asarda tasvirlangan kanareka qushining ko'rinishini o'quvchilar o'z tasavvurlarida gavdalantirishadi va qog'ozlarga chizishadi. Kanareka ovozi audio orqali qo'yilib, unga tanqid qilishlari ham maroqli dam olishning bir usuli deb hisoblaymiz. Berilgan 5 ta jarayon tabiat qo'ynida tashkil qilishga mo'ljallangan bo'lib, maktabning "Jonli burchak" deb atalgan qismi ayni ular uchun mosdir. Eng muhimi shundaki, tanaffuslardagi jismoniy mashqlar va harakatlar bolalarning kognitiv rivojlanishlari uchun muhimdir. Avvaliga fincha uslubdagi tanaffuslarning qiymati erkin o'yinlar bilan bog'liq degan tushunchalarga ham tayandik, ammo keyinchalik tanaffuslar pedagoglarga singdirilgan alturistik harakatga qarshi vosita ekanligini angladik. Yaxshi kayfiyatda vos kechgan holda tanaffuslarsiz ishlashlarga nisbatan qo'llanladigan harakatlar majmuasi bu alturizm deyiladi.<sup>1</sup>Yosh pedagog nazdida pedagogning professional sifati, qadr-qimmat

u bajargan ishning hajmiga bog'liq degan qarashlar, hozirda rahbarlar tomonidan singirilayotgan bo'lsada, keyinchalik bu holat pedagoglarning "ishtiyoqsizlik" kasalligiga sabab bo'lmoqda. 15 daqiqalik tanaffuslarning nafaqat o'quvchilaraga balki ko'p yillik pedagoglarga ham yordami katta ekanligi, chet el olim va mutaxassisleri tomonidan ham qayd etilgan. Finlandiyalik jurnalist Brijit Shalti o'zining "Ishga ko'milganlar" kitobida to'xtovsiz ishlash muammosini har tomonlama o'rganib chiqadi va ish bilan shaxsiy hayot o'rtasidagi sog'lom muvozanatni saqlab qolish yo'llarini topishga harakat qiladi. U kayfiyatni yaxshilash uchun turli strategiyalar taklif qiladi, ayniqsa, "Pulsatsiya" - ya'ni tez-tez ishdan chalg'ib, dam olish, jamoa bilan suhbatlashish, ko'proq suv ichish va ilmiylikdan qochib badiiy asarlar, san'at asarlarini tomosha qilishni taklif qiladi. Yuqorida keltirilgan "Sayroqi qushcha"<sup>2</sup> badiiy asari ham tabiat, atrof muhit bilan bog'liq bo'lib, u bolalarga va pedagoglarga hissiy dam olish va quvonchga to'lish imkonini beradi. Shunday ekan, xulosa o'rnida 15 daqiqalik tanaffusni kichik innovatsiya sifatida qabul qilinishi, badiiy asar ustida ishlashning barcha elementlarini erkin, mustaqil, ijodiy tahlil va tanqid qilishining kichik debochasi deb e'tirof etish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim va tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022.
2. Matchonov.S, Bakiyeva.S, Gulyamova.X, Yo'ldosheva.Sh, Xolboyeva.G Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi "Ishonchli hamkor" – 2021. –T.232b
3. Bakiyeva.H.S 4-sinf o'qish darslarida adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish "Nodirabegim" – 2021. –T.
4. T.Uoker Finlandiya ta'lim mo'jizasi "Global books" – 2023. – t.t. Уокер чудо Финляндского образования . Rus tilidan Botir Rahmonov tarjimasini.
5. Asqarova.O', Muminova.D O'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar "Navro'z" – 2019. – T.
6. Toirova.M.E O'qish savodxonligi 1-qism darslik 4-sinf. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.-16b
7. Toirova.M.E O'qish savodxonligi 1-qism mashq daftar 4-sinf. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.-9b
8. D.Lemov "O'qituvchi mahorati" – 2015. Лемов.Д учительское мастерство» - 2015.
9. Yoqubov.S, Zokirov.J O'quvchilarni savol berishga o'rgatish usllari. -2017.-pp-110-112 методы обучения студентов задавать вопросы